

## **8-mavzu: Tasviriy faoliyatga o‘rgatishning maqsadi.**

### **Tevarak atrofni tasvirlash asosida bolalarning tasviriy faoliyati.**

#### **Reja:**

1. Tasviriy faoliyatga o‘rgatishning maqsadi.
2. Tevarak atrofni tasvirlash asosida bolalarning tasviriy faoliyati.

#### **1. Tasviriy faoliyatga o‘rgatishning maqsadi.**

Maktabgacha ta’lim muassasalarida tasviriy faoliyatga o‘rgatishning maqsadi bolalarning qobiliyatlari va ijodkorligini rivojlantirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta’minlashda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta’lim muassasalarining moddiy texnika bazasini, Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi. Maktabgacha ta’limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma’naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta’lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o‘zining fikrini mustakil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘ligini ta’minlashdan iborat.



Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy tasviriy san’at orqali bolalardagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to‘g‘ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir.

Tasviriy san’atning o‘ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi

bolalarga ulashish mahoratiga ega bo'la oladigan tarbiyachilarni yetishtirib chiqarish vazifasi turibdi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o'rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lishi, buning uchun muntazzam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko'tarishi, ilg'or tajribalarga tayanishi kerak.

Davlat umumilliy dasturi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni ham shaklan, ham mazmunan zamon talablariga moslashtirish, ta'lim sifat samaradorligini uzluksiz takomillashtirib borishga yo'naltirildi



Tasviriy faoliyati bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasasi dasturi bolalarda tevarak atrofga nisbatan, bolalarda estetik munosabatni tarbiyalash ijodiy qobiliyat va tasvirlashlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi mashg'ulotlarida muvaffaqiyatli o'rganib ketishlari uchun zarur bo'lgan vazifalar xal etiladi. Rasm, applikatsiya, loy ishlari jarayonida bolalarda fikr yuritishning analiz, sintez, takrorlash, konkretlashtirish kabilar shakllanadi. Shuningdek bu jarayonlarda bolalar jamoada ishlashga, o'z harakatini o'rtoqlarining harakatiga bo'ysundirishga o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarining tasviriy faoliyat birlamchi yo'nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi.

Bu yo'nalishning samarasi estetik yo'nalishning barcha vositalarini (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, applikatsiya va boshq.) kompleks tarzda qo'llanilgandagina aniq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tiladigan "Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini yechishda katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o'z xususiyatiga ko'ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg'ulotlarining barcha turlari bolalarda go'zallikni bilish uchun, borliqqa emotsional-estetik munosabatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.

“Tasviriy faoliyat” mashg‘ulotlari jarayonida:

1. Badiiy didni tarbiyalash;
2. Amaliy badiiy faoliyat va malakalarni rivojlantirish;
3. Fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvur qilish, idrok qilishni rivojlantirish;
4. Qo‘lning aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish;
5. Kasbiy badiiy-ijodiy faoliyat kurtaklarini namoyon bo‘lishi uchun imkon yaratish kabi ta’limiy va tarbiyaviy masalalar hal etib boriladi.



Maktabgacha ta’lim muassasalarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san’at asarlarini bilan rasmga qarab hikoya qilish; maktabda esa tasviriy san’atning turlari rang tasvir, grafik, haykaltaroshlik

va dekorativ san’at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar. Maktabgacha ta’lim muassasasida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari xilma-xildir: rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg‘ulotlari hisoblanadi.

Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida, qalam hamda mo‘yqalamdan erkin foydalanishga o‘z xarakterini va qo‘l kuchini idora etishga o‘rganadilar. Bu esa, malakani egallash, bolalarda qo‘lini yengil, erkin bir tekisdagi harakat qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Bolalar turli shakl, kattalik, proporsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga qarab yo‘nalishni saqlash zarurligiga, predmetning kattaligiga mos ravishda harakatlanishga o‘rganadilar. Maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni ishlatish yo‘llarini rejalashtirishga o‘rganadilar. Bu mashg‘ulotlar bolalarda diqqatni va ko‘rish xotirasini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari *tayyorlov guruhida* naturaga qarab rasm chizish yoki tasvirlashga nisbatan talablar oshadi va bu talablar maktab talabiga

yaqinlashadi. Naturaga qarab tasvirlashda ishning ketma-ketligini ko'rsatib, bolalar tayyorlov va katta guruhida o'rganishning boshlang'ich bosqichidagina amalga oshiriladi. Bolalar naturani analiz qilishga butun umumiy shaklni xomaki qog'ozga tushirib olishga, rasmni naturaga solishtirishga, xato va kamchiliklarini to'g'rilashga, naturaga o'xshatishga urinadilar.



Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida geometrik shakllarni topa olishga yoki ko'ra olishga, ularni terminlar bilan atashga, kengligi, kattaligi, uzunligi, balandligini, qismlarning bir-biriga nisbatan fazoviy joylashuvi bilan tanishishni o'rganadilar. Qurish-yasash mashg'ulotlarida materiallardan qurish yasash bolalarda ko'z bilan chamalashni shakllantiradi. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Ushbu jarayonda bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi, xajmi bilan tanishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi.

Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, hayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlari; ishni baholash jarayonida, ularda o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi. Tasviriy faoliyat - bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini,

rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo‘laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog‘liqdir. Bola rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa, shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo‘ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba’zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishni rivojlantiradi. Ularda tasviriy san’at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg‘uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarning badiiy ijodiy o‘shida muhim o‘rin egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o‘shisi-bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo‘lgan malaka, ko‘nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan: tabiatga yoki istirohat bog‘iga sayr, kuz faslida ekskursiya uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak atrofni kuzatishda kelib chiquvchi estetik his-tuyg‘u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to‘g‘ri baho berish, Vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalash mumkin.

Bolalarni o‘z ishini yana ham chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ular ko‘rganda quvonadigan qilib yaratish - bu badiiy, axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Rasm, loy, qurish materiallari bo‘yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo‘ladi. Ularni o‘quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko‘rsatmalarini bajarishga o‘rgatadi. Oldiga qo‘yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo‘llarini izlab topish bu o‘quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o‘z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o‘ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi.

## **2. Tevarak atrofni tasvirlash asosida bolalarning tasviriy faoliyati.**

Maktabgacha yoshdagi bolalarga tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida tasvirlash texnikasining noan’anaviy vositalari va didaktik materiallar bilan ularning tasviriy

faoliyatida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Rasm chizish va tasvirlash jarayonida bolalarda kuzatuvchanlik, estetik qabul qilish, estetik hissiyotlar, badiiy did, mustaqil holda yetarlicha vositalar bilan go'zallikni yaratish malakasi rivojlanadi. Tasviriy san'at mashg'ulotlari bolalarda atrof-muhit va san'at asarlaridagi ajoyibotlarni ko'ra olish malakasini rivojlantiradi, o'quvchilarda san'atga ishtiyoq uyg'onadi. Ular asta-sekin tasviriy san'at, chizmachilik, haykaltaroshlik, amaliy-dekorativ san'at asarlarini tushuna boshlaydilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy san'at fanini o'rganishi uchun avvalo, ularga tarbiyachi-pedagogning ko'magi kerak bo'ladi. Bolaning qo'llarini yozishga o'rgatishda, avvalo, chizish, tasvirlash va didaktik o'yinli rasmlar bilan ularni maktab ta'limiga tayyorlab borish lozim. Shunday bo'lishiga qaramay, kuzatishlarimiz natijasiga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablariga o'qishga qabul qilingan birinchi sinf o'quvchilari tasvirlashning o'ziga yarasha qonun-qoidalariga rioya qilgan holda uddalashlari biroz qiyin kechadi. Chunki ular tasvirlashning boshlang'ich qoidalarini tushunmaydilar va qo'llari unga deyarli moslashmagan bo'ladi. Shuning uchun ham bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab turli badiiy va tabiiy materiallar bilan tasvirlash texnikasini o'rgatishda bosqichma-bosqich uzviylik asosida mashg'ulotlar to'g'ri olib borilsa, umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi sinfiga borgach, ular albatta yaxshi natijaga erishishi mumkin. Shu sabab, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rasmlarning chizilish, bo'yalish xarakteri va sifatini belgilaydigan kerakli materiallar(qalam, flomaster, ruchka va mo'yqalam)ni ushlab ko'nikmalari, rasm chizishning turli usullari, harakat ko'nikmasi va xususiyati, rasmda turli xil shakldagi predmetlar, ularning qism mutanosibligini ko'rsatishni ta'minlovchi malakalar rasm chizish texnikasi tushunchasiga kiritildi.


Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, bolalarni turli badiiy va tabiiy materiallar bilan tasvirlash texnikasiga o'rgatish to'laqonli emas, chunki tarbiyachi-pedagoglar bolalarning bu boradagi materiallar va ular bilan ishlash texnikalariga e'tibor bermaydilar. Avvalo, bolalar biror narsa yoki



buyumni tasvirlashda qalamni noto'g'ri ushlaydilar va bosim bilan chizadilar. Mushaklarni haddan ortiq zo'riqtirish qo'lining tez charchashiga, tasviriy harakatlarning siqqligiga olib keladi. Har bir o'quvchi asbobni ushlaydigan ushlaydigan ratsional usullarini to'g'ri egallamaydi, shuning uchun rasm chizish jarayonida qo'l harakati ba'zan ishonchsiz va noaniq bo'ladi. Chizayotgan bola qo'li bilan o'zidan tasvirni bekitadi va tabiiyki, ko'z qarashi bilan qo'l harakatini nazorat qila olmaydi. Bularning hammasi tasviriy topshiriqning hal qilinishiga, rasmning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarga tasviriy-texnik usullarni o'rgatishda, avvalo, rasm chizishning boshlang'ich alifbosidan boshlash kerak. Bu esa turli yoy, vertikal, gorizontal, to'g'ri va egri, to'lqinsimon chiziq turlarini mashq qildirishdan iborat. Bu maktabgacha yoshdagi bola qo'llarining mustaqil harakat qilishi, chizishi va yozishiga tayyorlaydi hamda qo'lining mayda motorikalarini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri chiziq, kvadrat, aylana, doira, to'g'riburchak (o'rtasi, burchak va tomonlari), ritmik izchillik va simmetriyasiga rioya qilgan holda, naqsh elementlarini chizishi, asosan, boshlang'ich tasviriy-texnik usullarni bilishiga bog'liq. Shuning uchun ham biz quyida bola qo'llarini to'g'ri harakat qildirishga o'rgatuvchi tasviriy-texnik usullarning didaktik, mantiqiy, o'yinli mavzular jadvalini keltirib o'tamiz.



### ***Boshlang'ich tasviriy-texnik usullar:***

№ Didaktik-mantiqiy o'yinli mavzular. Didaktik o'yinli tasvirlar  
1. Gorizontal, vertikal, qiya, keskin chiziqlarni chizish; uycha tasvirini qurish-yasash; samolyot aeroportga qo'nishi uchun to'g'ri yo'l ko'rsatish; labirint o'yini orqali chiziq turlarini chizish; rasm chizishda qalamni to'g'ri ushlaydigan o'rgatish.







2. Gorizontal, vertikal, qiya, keskin chiziqlarni katak qog'ozdagi tasvirlangan mushuk tasvirida birikmagan chiziq qismini birlashtirib chizish; mantiqiy fikrlash orqali chizishga o'rgatish.



3. Aylana, yoy va egri chiziqlarni chizish va matematik hisoblashga o'rgatish.



4. Keskin, yoy va to'liqlik chiziqlarni chizish va ko'z bilan chamalash, matematik hisoblashga o'rgatish.



6. Qo'lni uzmagan holda doira chizishga o'rgatish orqali erkin doirasimon predmetlarni tasvirlashga hamda rasm chizishda qalamni to'g'ri ushlashga o'rgatish.



Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida biz misol qilib ko'rsatgan tasvirli-mantiqiy material bloklaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning tasvirlash mahorati, ijodiy qobiliyati, chizish ishtiyoqi, qo'llardagi mayda motorikalar, mantiqiy fikrlash va tasavvur qilishni rivojlantiradi. Bolalarda atrof-olamga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otishga, ilk matematik, tasviriy konstruksiyalashtirish, ixtiro qilish, muhandis, dizaynerlikka oid tasavvurlarini rivojlantirish, sinchkovlikni oshirishga xizmat qiladi. Asosiysi, bolalarni maktab ta'limi (yozish, chizish, bilim olish)ga tayyorlaydi.



### **Nazorat uchun savollar:**

1. Tasviriy faoliyatga o'rgatishning maqsad vazifalari?
2. Tasviriy faoliyat orqali bolani tarbiyalash usullari?
3. Tarbiyalanuvchilarga tasviriy san'atni o'rgatishda qalam ishlatish yo'llari?
4. Qog'ozga rasm chizishni o'rgatish qoidalari?
5. Guruhlar kesimida tasviriy faoliyatga o'rgatish?
6. Bolalarni tasvir chizish qoidalarini o'rgatish yo'llari?
7. Geometric shakllarni chizishni o'rgatish?
8. Yoysimon chizg'ilarni chizishni o'rgatish?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi
3. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi.T.: «Ilm ziyo». 2006.
4. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Oilada barkamol avlod tarbiyasi.T.: «Fan va texnologiya», 2010.
5. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Oila pedagogikasi. «Darslik.T:- «Aloqachi» 2007.
6. V.I. Loginova, P.G. Samarukovalar tahriri ostida. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T: O'qituvchi, 1991.
7. Bolalar bog'chasida estetik tarbiya (N.A. Vetlugina tahriri ostida). T., O'qituvchi, 1981.
8. Loginova V.I., Samarukova T.G. tahriri ostida. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. 2 qismli. 1- qism. T: O'qituvchi, 1991.